

## YOSH FUTBOLCHILARNI TESTLAR YORDAMIDA SARALASH VA QOBILIYATLILARINI TANLANGAN SPORT TURIGA YO'NALTIRISH

Salaydinov Botir Meyliyevich

Qarshi davlat universiteti, "Sport faoliyati" kafedrasiga katta o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.051>

*Annotatsiya. Mazkur maqola ko'p yillik tayyorlov tizimida yosh futbolchilarni saralash va ularni sport turiga yo'naltirishga bag'ishlangan. Maqolada keltirilgan tajriba natijalaridan yosh, iqtidorli futbolchilarni futbol bilan shug'ullanishlari uchun BO'SM, maxsus sinflar va tayyorlov guruhlari murabbiylari tomonidan tanlab olishda va tanlangan sport turiga yo'naltirishda samarali foydalanish mumkin.*

*Kalit so'zlar: Futbol o'yini, ko'p yillik tayyorlov tizimi, saralash jarayoni, sport turiga yo'naltirish.*

## ОТБОР ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ С ПОМОЩЬЮ ТЕСТОВ И НАПРАВЛЕНИЕ СПОСОБНЫХ К ВЫБРАННОМУ ВИДУ СПОРТА

Салайдинов Ботир Мейлиевич

Старший преподаватель кафедры «Спорт фаолияти» Кашинский государственный университет

*Аннотация. Данная статья посвящена отбору молодых футболистов по многолетней системе подготовки и ориентации их по виду спорта. Результаты эксперимента, представленные в статье, могут быть эффективно использованы тренерами секций, специальных классов и подготовительных групп для отбора и направления молодых талантливых футболистов к занятиям футболом.*

*Ключевые слова: футбольная игра, многолетняя система подготовки, сортировочный процесс, спортивная ориентация.*

## SELECTION OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS THROUGH TESTS AND REFERRAL OF THOSE CAPABLE OF THE CHOSEN SPORT

Salaydinov Botir Meyliyevich

Senior lecturer of the department of «Sports faoliyati» Karshi State University

*Abstract. This article is devoted to the selection of young football players according to a long-term training system and their orientation by sport. The results of the experiment presented in the article can be effectively used by coaches of sections, special classes and preparatory groups to select and direct young talented football players to football classes.*

*Keywords: football game, long-term training system, sorting process, sports orientation.*

**Kirish.** Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va hukumatimiz tomonidan sportga qaratilayotgan katta e'tibor tufayli qilinayotgan olamshumul ishlar, islohatlar hammamizning ko'z o'ngimizda namoyon bo'lmoqda. Sportning yurdoshlarimiz, ayniqsa, o'smir bolalarimiz o'rtaida ommaviylik darajasi juda yuqoridir [1].

Yuksak sport yutuqlarining mavqeい xalqaro musobaqlarda raqobatdoshlikning keskinlashishi, hamda mamlakat milliy terma jamoalari sportchilarini avlodlarining almashishi qonuniy jarayoni hozirgi davrda sport saralashi va istiqbolli yoshlarni tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimlarini takomillashtirish zarurligini belgilab beradi. Shunday holatda biz jahon sport musobaqlarida munosib qatnasha olamiz. Hozirda ham mashhur, tan olingan o'zbek sportchilarimiz bor. Albatta, ular bizning faxrimiz, lekin bizda yaxshi sportchilar kam, iqtidorli yoshlar esa juda ko'p.

Sport bilan shug'ullanish uchun bolalarni saralash va futbolga yo'naltirish boshqa ko'rsatkichlar bilan birgalikda, nafaqat jismoniy rivojlanganlik, balki jismoniy va texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari kabi shaxsiy sifat va xususiyatlarini aniqlash ham alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda [2,3].

Sport tanlovi uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, u o‘quvchilarning individual xususiyatlarini obyektiv baholashni talab qiladi, bu ko‘rsatkichlar to‘plamiga asoslanishi kerak, chunki sport natijalariga e’tibor har doim ham uning bashoratini oqlamaydi. Sport tanlovidagi kompleks metodologiya pedagogik, tibbiy-biologik, fiziologik va psixologik usullardan iborat bo‘lib, tanlovnning barcha bosqichlarida asosiy usul shaxsiy yondashuv bilan mustaqil xususiyatlarni umumlashtirish usuli bo‘lishi kerak.

O‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan sport tanlovi organik ravishda taqdim etilishi, asoslanishi va ishlab chiqilishi kerak. Bu murabbiylar obyektiv mezonlar bo‘yicha sportni tanlash imkoniyatlaridan kelib chiqib, shug‘ullanuvchilarning texnik va funksional tayyorgarligini yaxshilash istiqbollarini to‘g‘ri bashorat qilishlari uchun zarurdir. Qayd etilganidek, iqtidorli yosh futbolchilar o‘quv-mashg‘ulot bosqichida yo‘qolmasliklari va yuqori tezlikni zabit etish uchun yuqori malakali katta futbolchilariga aylanishlari kafolati bo‘lishi mumkin.

Iste’dodli yosh futbolchini saralash va sport turiga yo‘naltirish jarayonini takomillashtirishga yordam bera oladigan yangicha yondashuvlar, samarali vositalar va uslublarni ilmiy izlash zaruriyat yuzaga keladi va ushbu ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Futbolda qobiliyatli bolalarni saralab olish va sport turiga yo‘naltirishda samarali uslubiyatlarni o‘rganib chiqish va tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifasi. Yosh, kelajagi porloq futbolchilarni BO‘SM, maxsus sinflar va tayyorgarlik guruhlari rahbarlari tomonidan ixtisosli ravishda tanlab olish va saralashning samarali uslubilarini takomillashtirish va qo‘llanilishi bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, tanlab olish va saralash bo‘yicha testlar yig‘ish, tahlil qilish, saralash, pedagogik tajriba.

Tadqiqot natijalarini va muhokamasi. Futbolchilarni tanlash o‘quv-mashg‘ulot jarayonining muhim va uzviy qismidir, chunki u sport tayyorgarligining asosiy vazifasini hal etishga – yuqori sport natijalariga erishishga yordam beradi.

Futbolda tanlash faqat natijalarning ancha yuqori darajada bo‘lishigina emas, balki shug‘ullanuvchilarning bir xil tarkibda bo‘lishini ham ta’minlaydi, bu esa o‘qitish-o‘rgatish natijalariga ijobiy ta’sir etadi. Tanlashga yetarlicha baho bermaslik yoki uning uslublarining mukammal bo‘lmasi, odatda, tuzatib bo‘lmaydigan zarar keltiradi. Ko‘pchilik bolalarning bolalar-o‘smirlar sport maktablarini tashlab ketishi (bu o‘qitishning turli bosqichlarida sodir bo‘ladi) bunga misol bo‘la oladi.

Tabiiy tanlash o‘rinbosarlar tayyorlash muammosini hal qilmaydi. Bu holda qobiliyatsiz bolalar bilan bir qatorda qobiliyatli, ya’ni, odatda, maxsus sifatlar bo‘yicha yetarlicha tayyorlanmagan, lekin yuqori potensial (imkoniyat)larga ega bo‘lgan bolalar ham futbol maktabini tashlab ketadi.

Ko‘pgina murabbiylar eng qobiliyatli bolalarni tanlab olish uchun turli mezonlardan foydalanadilar, biroq bu mezonlar ko‘pgina hollarda bir tomonlama yoki subyektiv holatdada bo‘ladi. Shu bilan birga, tanlash ishi umuman stixiyali ravishda olib boriladi yoki ko‘pincha, murabbiylar bolalarning nazorat o‘yinlarida ko‘rsatadigan va avvalda qaror topgan texnik-taktik malaka va ko‘nik-malariga qarab ish yuritadilar. Bolalarning tezlik-kuch sifatlari va harakatlar koordinatsiyasi, tez fikrashi, irodaviy sifatlarining yuqori darajadaligi, shuningdek, yangi materialni tez o‘zlashtirib olishiga asoslangan imkoniyatlari hisobga olinmaydi.

Yosh futbolchilarni tanlash ishi boshidan oxirigacha yaxshi tashkil etilgan bo‘lishi kerak. Dastlab bolalarni jalb qilish va ularning sport maktablariga ommaviy ravishda kelishini ta’minlash choralarini ko‘rish lozim. Eng avvalo, nomzodlarni yaqin orada joylashgan turar joy hududlari va maktabdan tanlash maqsadga muvofiqdir, shunday qilinganda, ko‘p yillik tayyorlash jarayonini tashkil etish va tekshirib turish oson bo‘ladi. Xohlovchilarni qabul boshlanishidan ancha oldin bu haqda xabardor qilish kerak. Biroq faqat gazetada e’lon qilish yoki radio orqali axborot berish zarur samarani bermaydi. Murabbiylarning maktablarga kelishi va tanlash ishi boshla-nishidan 4-5 kun oldin bolalarni xabardor qilishi eng yaxshi vositadir.

Yosh futbolchilarni tanlashda ularning umumiyligi va maxsus qobiliyatiga ahamiyat beriladi. Texnik tayyorgarlik darajasiga, ya’ni «o‘ynashni bilishiga» eng kam e’tibor qaratiladi. Bu

mezon yosh futbolchining musobaqaga tayyorgarligini hisobga olmaydi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shunday bolalar borki, futbol bo'limiga kirganda texnik va o'yin ko'rsatkichlari unchalik baland darajada bo'lmaydi, lekin jismoniy va psixologik omillari yuqori darajada bo'lganligi sababli, ularning texnik-taktik mahorati tez o'sadi.

Biz birinchi tanlovda qo'llash mumkin bo'lgan kompleks ko'rsatkichlarni tanladik.

1. Muhimi, ko'pincha tug'ma hisoblangan yugurish tezligi. Tezkorlik sifatlarini baholash uchun 30 metrga yugurish tavsiya qilinadi.

2. Qobiliyatni rivojlantirishda tezlik-kuch imkoniyatlari katta rol o'ynaydi. Buni yugurib kelib, ikki oyoqda depsingan holda yuqoriga sakrashning balandligi orqali baholash mumkin.

3. Muhim sifatlardan biri bu epchillikdir. Uning 12-13 yoshdan keyin rivojlanishi qiyin bo'ladi. Tanlashda umumiy va maxsus epchillikni hisobga olish kerak.

4. Maxsus koordinatsiya dribbling orqali baholanadi (5 ta doirani aldab o'tish).

5. Eng muhim ruhiy sifatlardan biri o'yinni idrok eta bilish va mo'ljal olishdir.

6. Tanlashning oxirgi bosqich ko'rsatkichi bu – «o'yin shiddati va jangovarlik sifati».

Shunday qilib, birinchi bosqichda 6 ta test va ko'rsatkichlar o'yin paytida baholandi.

Bu tanlash dasturini 30-50 ta boladan kirish imtihonlarini qabul qilishga mo'ljalladik.

Yosh futbolchilarning yiqqan ballari soni aniqlanib, ularning bahosi quyidagi baholash meyorlari jadvali orqali keltirildi.

Qabul imtihonlari natijalari tahlil qilinganidan so'ng baholar e'lon qilindi. Ijobiy baholarga erishgan bolalardan guruh tanlab olindi. Ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'lib, ammo sinovdan o'ta olmagan futbolchilar nomzodlar guruhibiga olindi. Ularga uy vazifasi yarim yilga yoki bir yilga beriladi, so'ngra ular qayta ko'rikdan o'tishlari mumkin. Shuning bilan birinchi bosqich yakunlandi.

### 1-jadval

Boshlang'ich ixtisoslik bosqichida testlash natijalari baholar gradatsiyasi

Testlar va ko'rsatkichlar	Mashg'ulot boshlangunga qadar (10 yosh)			Bir yillik mashg'ulotdan so'ng (11 yosh)			Ikki yillik mashg'ulotdan so'ng (12 yosh)		
	Yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz			Yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz			Yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz		
30 m ga yugurish	5,3- 5,5	5,6- 5,8	5,9- 6,1	5,0- 5,2	5,3- 5,6	5,7- 5,9	5,0- 5,2	5,3- 5,5	5,6- 5,8
Sakrovchanlik	31-34	30-26	25-22	36-33	32-28	27-24	40-37	36-31	30-27
Umumiy epchilik kompleksi	23-24	25-27	27-29	21-23	23-25	26-28	20-21	21-23	23-25
5 ta doirani aldab o'tish	10,5- 12,0	12,1- 13,0	14,0- 15,7	9,8- 10,7	10,8- 12,4	12,5- 13,5	8,6- 9,6	9,7- 10,8	10,9- 12,0
O'yinni idrok etish	4	3	2	4	3	2	4	3	2
O'yinda shiddatlilik	4	3	2	4	3	2	4	3	2

Ilova: Alovida ko'rsatkich bo'yicha natijalar «4» gradatsiyasidan oshiq bo'lsa,

«5» baho qo'yiladi, agar «2» gradatsiyasidan kam bo'lsa «2» baho qo'yiladi.

## 2-jadval Natijalar o'sishini baholash gradatsiyasi

<b>Test va ko'rsatkichlar</b>	<b>Mashg'ulot boshlangunga qadar (10 yosh)</b>			<b>Bir yillik mashg'ulotdan so'ng (11 yosh)</b>			<b>Ikki yillik mashg'ulotdan so'ng (12 yosh)</b>		
	<b>Yaxshi, qon-li, qoniqarsiz</b>			<b>Yaxshi, qon-li, qoniqarsiz</b>			<b>Yaxshi, qon-li, qoniqarsiz</b>		
Uzoq masofaga zarba berish	22-20	19- 16	15- 13	26- 23	22- 18	17- 15	28- 26	25- 22	21- 19
To'pni olib yurish, aldab o'tish, zarba	10,6-11,1	11,3- 13,3	13,4 - 15,0	8,7- 10,7	10,8- 12,3	12,4- 13,4	8,0- 8,9	9,0- 10,9	11,0- 12
Doiralarni «aldab» o'tish, slalom	10,5-12,0	12,1- 13,9	14,0 - 15,7	9,8- 10,7	10,8- 12,4	12,5- 13,5	8,6- 9,6	9,7- 10,5	10,9- 12,0
O'yin sharoitida tezkor fikrlash, xotirlash	3,8-3,3	3,2- 2,8	2,7- 2,2	3,8-3,4	3,3- 2,7	2,6- 2,2	4,0- 3,8	3,7- 3,2	3,1- 2,7
300 m ga yugurish	67- 72	73- 79	80- 85	64- 67,5	68- 71	71,5- 74	57- 60	61- 65	66- 69

Tanlashning ikkinchi bosqichida yosh futbolchilar ichidan iqtidorlilari ajratib olinadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun birinchi bosqichdagi testlar ijobiliy samara bermaydi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, qobiliyat rivojlanishini baholash uchun birmuncha boshqacharoq doira ko'rsatkichlaridan foydalanildi.

1. To'pga oyoq bilan uzoq masofaga zarba berish – 3 marta. Eng yaxshi natija hisobga olindi.

2. Texnika uchun test. Burchakdan jarima maydonining markazigacha to'pni olib yurib, bir-biridan 3 m uzoqlikda joylashgan to'siqlarni «aldab» o'tib, darvozaga zarba berish. Chap va o'ng burchakdan ikkitadan imkoniyat beriladi. To'p darvozaga kirishi lozim. Eng yaxshi natija hisobga olindi.

3. Maxsus koordinatsiya uchun test. To'p bilan doira-larni kam vaqt sarflab «aldab» o'tish. Ikki imkoniyatdan yaxshi natija hisobga olindi.

4. Umumiy chidamlilikni baholash 300 metrga yugurish bilan amalga oshirildi.

5. O'yin faoliyatini baholashda psixologik va fiziologik tadqiqotlarda qo'llanadigan usullardan foydalaniladi. O'rtacha natija 10-12 urinishdan keyin aniqlandi.

Xulosa. Birinchi bosqichdan so'ng, tanlab olingan bolalarning ko'rsatgan natijalarini qo'shimcha testlandi. So'ng oltita test natijalari orqali ballar yig'indisi hisoblandi. Keyinchalik bir, ikki yillik mashg'ulotlardan so'ng taqdim etilayotgan mashqlar kompleksi orqali testlash o'tkazildi va yana ballar yig'indisi aniqlandi.

O'sish templari yig'ilgan ballarning farqiga qarab mashg'ulotlardan oldin va mashg'ulotlardan bir yoki 2 yil so'ng aniqlanadi. Sport takomillashtiruvida qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar ko'pincha ruhiy tomonidan kuchlirok bo'ladi. Shuning uchun murabbiy tomonidan ularning mehnatsevarligiga va tirishqoqligiga katta e'tibor berish talab etiladi.

Sportchilarni saralash kasbiy tanlovdan farq qiladi. Sport maktablari uchun sportchilarni saralash istiqboldagi 6-10 yil davomida muvaffaqiyatlari faoliyat ko'rsatish bashoratini nazarda tutgan holda amalga oshirildi. Yoshga monand rivojlanish va maxsus tayyorgarlikka ta'sir etuvchi ko'plab omillarni hisobga olish zaruriyati bunday bashoratni qiyinlashtirdi va sportda saralash talabi sportchilarni aniqlashga qaratildi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. 2017, 67-b.

Akramov R.A., Tolibjonov A. "Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash". Toshkent – 1994 y., 142-b.

Futbol. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. R.A. Akramovning umumiy tahriri ostida. T., 2006 y., 134-b.